

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

*Qo‘lyozma huquqida
UDK: 336.5(575.1)*

NORBOYEV SHAHBOZ ABDURASUL O‘G‘LI

**TIJORAT BANKLARI RESURSLARIDAN SAMARALI
FOYDALANISH YO‘LLARI**

**5A230701 – Bank ishi (faoliyat turlari bo‘yicha) mutaxassisligida
Magistr akademik darajasini olish uchun tayyorlangan**

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar: i.f.n., dotsent A.A.Azlarova

Toshkent – 2019

Mazkur magistrlik dissertatsiyasida tijorat banklari resurslaridan samarali foydalanish yo'llari tadqiq qilingan. Tadqiqot bank resurslari tushunchasi va ularning iqtisodiy mohiyati, tijorat banklari resurslari tarkibida jalb qilingan mablag'larning tutgan o'rni nazariy jihatdan o'rganilgan, tijorat banklari resurslari va unda bank kapitalining o'rni huquqiy jihatdan tadqiq qilingan. O'zbekistonda tijorat banklari resurslarini amaldagi o'rganilib, tahlil qilingan, olingan natijalar hamda aniqlangan kamchiliklar va muammolarni yechimi yuzasidan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

In this master dissertation thesis examines the ways in which commercial banks can effectively utilize their resources. The research has focused on the concept of banking resources and their economic significance, the role of funds invested in the resources of commercial banks, the sources of commercial banks and the role of bank capital in their legal studies. In Uzbekistan, commercial banks have been actively studying, analyzing and analyzing the available resources, and developing scientific recommendations and practical recommendations to address identified shortcomings and problems.

Magistrlik dissertatsiyasi «Bank ishi» kafedrasida dastlabki himoyadan o'tgan. 13 -sonli bayonnoma «15» noyabr 2019 yil.

Ilmiy rahbar: i.f.n., dots. A.A.Azlarova

[Signature]
imzo

_____ sana

Magistr:

SH. A. Norboyev

[Signature]
imzo

_____ sana

«Himoyaga tavsiya etiladi»

«Bank ishi» kafedrasi mudiri,

PhD. U.Sh.Duskobilov

[Signature]
«30» fevral 2019 y.

Magistrlik dissertatsiyasi himoyasi 2019 yil «28» noyabr soat 14⁰⁰ da Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bo'lib o'tadi.

MUNDARIJA

KIRISH	3
I BOB. TIJORAT BANKLARI RESURLARINI SHAKLLANTIRISH VA ULARDAN SAMARALI FOYDALANISHNING NAZARIY ASOSLARI.....	8
1.1.Bank resurslari tushunchasi va ularning iqtisodiy mohiyati.....	8
1.2.Tijorat banklari resurslari tarkibida jalb qilingan mablag‘larning tutgan o‘rni.....	17
1.3.Tijorat banklari resurslari va unda bank kapitalining o‘rni.....	29
Birinchi bob bo‘yicha xulosa.....	39
II BOB. O‘ZBEKISTONDA TIJORAT BANKLARI RESURLARINI AMALDAGI HOLATI VA UNING TAHLILI.....	40
2.1. Tijorat banklarining resurslaridan samarali foydalanishning amaldagi holatining tahlili.....	40
2.2. “Sanoat-qurilish bank” ATB faoliyatida resurslardan foydalanishning tahlili.....	49
Ikkinchi bob bo‘yicha xulosa.....	59
III BOB. TIJORAT BANKLARI RESURLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH ISTIQBOLLARI.....	64
3.1. Bank resurslaridan samarali foydalanish bilan bog‘liq muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari.....	64
3.2. Tijorat banklari resurslaridan samarali foydalanishni takomillashtirish yo‘llari.....	69
Uchinchi bob bo‘yicha xulosa.....	76
XULOSA VA TAKLIFLAR.....	78
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI.....	82
ILOVALAR.....	90

KIRISH

Magistrlik dissertatsiyasi mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi.

Mamlakatimiz iqtisodiyotining barqaror o'sishining ta'minlanishi, makroiqtisodiy va moliyaviy barqarorlikni mustahkamlanishida banklarning barqaror resurslarga ega bo'lishi muhimdir.

Ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash, iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini jadal yangilashda banklarning roli oshib boradi. Ana shunday sharoitda bozor subyektlarining pul mablag'lariga bo'lgan ehtiyojlari o'sib boradi. Bu esa banklarga o'z navbatida xo'jalik subyektlariga uzoq muddatli resurslarni ajratish va uni samarali ishlatish ustidan nazoratni ta'minlashdek muhim vazifalarni bajarishni talab etadi.

Banklarning kapitallashuv darajasini va bank likvidliligining oshirilishi pirovardida ularning moliyaviy barqarorligini ta'minlash uchun mustahkam zamin yaratadi. Shu bilan birga, keng ko'lamli islohotlarni amalga oshirishda banklarning investitsiya kreditlari orqali ishtirokini ta'minlashning faollashgani barqaror resurs bazasini shakllantiradi.

Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev 2019 yil uchun mo'ljallangan eng muhim ustuvor vazifalar haqidagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida quyidagilarga alohida to'xtalib o'tdilar: "Bugungi kunda bank tizimidagi eng asosiy muammo – ular kapitalining asosiy qismi, ya'ni, 83 foizi davlatga tegishli ekanidir. Bu, o'z navbatida, bank sektorida sog'lom raqobatga to'siq bo'lib, xizmat ko'rsatish sifatiga salbiy ta'sir qilmoqda.

Hukumat va Markaziy bank xalqaro moliya institutlari ko'magida bank-moliya tizimini rivojlantirish bo'yicha uzoq muddatli strategiya ishlab chiqishi lozim.

Bunda bank tizimiga xususiy va xorijiy kapital kirib kelishi hisobidan biz davlat banklari ulushini bosqichma-bosqich kamaytirib boramiz. Bu esa sohada raqobat muhitini yaxshilashga, tijorat banklari faoliyatini, kreditlash sifati va